O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

X. IMAMOVA, M. MAQSUDOVA,
S. TOSHALIYEVA

ASOSIY O‘RGANILAYOTGAN TIL (TURK TILI)

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent–2013

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarida “Filologiya va tillarni o‘qitish(turk tili)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oluvchi 1-kurs talabalari uchun yaratilgan. Turk tilining fonetikasi, leksikologiyasi va morfologiyasiga oid ma’lumotlarni qamrab olgan.

Qo‘llanma DTS, ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi hamda fanning o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv yilining I yarim yilligiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Filologiya fanlari doktori, professor ***Q.P. Sodiqov***

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent ***J.K. Shabanov***
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent ***A.X. Tilavov***

Mualliflar:

Turkiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi ***X. Imamova***
Turkiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi ***M. Maqsudova***
Turkiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi ***S. Toshaliyeva***

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2013 yil 19 apreldagi 128-sonli buyrug‘iga asosan 5120100- Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan (Ro‘yxat raqami 128-078)

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma №5. 19.04.2012)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013

SO‘Z BOSHI

Istiqlol milliy qadriyatlarimizni anglash, ona tilimizni chuqur o‘rganish, uning mavqeining ortishiga katta imkoniyat yaratib berdi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”[1]. O‘zligini yaxshi anglagan, o‘z ona tilini qadrlagan xalq chet tiliga ham hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, uni sevib o‘rganadi. Chet tilini o‘rganish, tadqiq etish o‘sha mamlakat, xalqning tarixi, madaniyati haqidagi bilimlarini boyitadi; do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini kengaytirib, mustahkamlaydi.

O‘quv fanining maqsadi talabalarga turk tilini ilk bosqichdan boshlab o‘rgatishdir. O‘qitish soddadan murakkab sari yo‘naltirilgan.

Bakalavriat yo‘nalishida o‘tiladigan turk tili darslarining birinchi qismi ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar shaklida bo‘lib, turk tilida so‘zlashuvni o‘rganish, so‘z boyligini oshirish, fonetika va morfologiyaga tegishli boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Har bir kursning o‘z maqsadi bor. Uning asosiysi turk tilining barcha sohalariga oid ma’lumotlarni talabalarga yetkazish, tilning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash, bir til oilasiga mansub bo‘lgan turk va o‘zbek tillari fonetikasi, morfologiyasi va sintaktik qonunlarini

[1] *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 83-b.

qiyoslash, ularning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu oʻquv qoʻllanma oliy oʻquv yurtlaridagi turk filologiyasi boʻlimlari bakalavriat yoʻnalishida tahsil olayotgan 1- kurs talabalari uchun moʻljallangan. Maqsad talabalarga turk tilini ilk bosqichdan boshlab oʻrgatishdir.

Oʻquv qoʻllanma oʻn toʻqqizta darsdan iborat boʻlib, nazariy va amaliy bilimlarni qamraydi. Bunda turk tilida soʻzlashuvni oʻrganish, soʻz boyligini oshirish, fonetika va morfologiya, leksikologiyaga tegishli boshlangʻich maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, berilgan topshiriqlar grammatik mavzularni mustahkamlashga qaratilgan. Soʻz boyligi qismida esa turk tilining soʻz boyligi hamda yangi soʻz va iboralar joy olgan boʻlib, ular talabalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qoʻllanmada joy olgan matnlar turli mavzularda boʻlib, bu talabaning turli sharoitlarda erkin suhbat qila olish malakasini hosil qiladi. Shuningdek, har bir mavzuga oid topishmoqlar, krossvordlar, latifalar, mashqlar oʻrin olgan. Ana shularni hisobga olgan holda har bir darsda nazariy maʼlumotlardan tashqari soʻz boyligi, suhbat mavzulari, matn ustida ishlash va tarjima uchun matnlardan iborat.

Ushbu oʻquv qoʻllanma turk tilini oʻrganish boʻyicha yaratilgan manbalardan biri sanaladi. Talabalar oʻquv yilining I yarim yilligiga moʻljallangan kurs mobaynida talabalar turk tiliga oid ilk maʼlumotlarni bilib olish bilan birga, oʻrganilayotgan tilning morfologik tuzilishi, tovush tizimi, oʻrganilayotgan tildan oʻz ona tiliga tarjima qila olish amaliyotiga doir koʻnikmalarga ham ega boʻladilar.

Ushbu oʻquv qoʻllanmadagi turk tili va grammatikasiga oid nazariy qism, nazariy qismlarga oid matnlar, yangi soʻzlar, sohaga oid soʻz boyliklari, testlar, baʼzi hajviyalar, iboralar, mashqlar X. Imamova


tomonidan yozildi. Qo‘llanmadagi mashqlar, krasvordlar, hajviyalar M.Maqsudova tomonidan tuzildi, va ba’zi bir mashqlar S.Toshaliyeva tomonidan yaratilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada mualliflarning e’tiboridan qochgan jihatlari bo‘lishi mumkin. Shu sababli mualliflar o‘quv qo‘llanma bo‘yicha bildirilgan samimiy fikr va mulohazalarni inobatga olib, keyingi ishlarida e’tibor qaratadilar.

1-DARS

TURK TILI VA UNING DUNYO TILLARI ORASIDA TUTGAN O‘RNI

TURK ALIFBOSI (TÜRK ALFABESİ)



Kelime çalışması – So‘z boyligi: Selamlaşma - Salomlashuv, Tanışma- Tanishuv

Turkiy xalqlar yer yuzidagi mavjud xalqlar ichida tarixan eng eski xalqlardan biri sanaladi. Shu sababli

Turkiya Jumhuriyatining rasmiy tili boʻlgan turk tili ham juda boy boʻlgan turkiy tillar orasidan oʻrin egallaydi. Turk tili Oʻrta Osiyodan yoyilib boshlab, Onadoʻli, Bolqon yarim oroli, Qora dengizi atroflariga qadar boʻlgan hududni qamragan.

Yer yuzidagi til oilalari olimlar tomonidan asosan ikki boʻlimda, kelib chiqishiga koʻra va tuzilishiga koʻra ajratilib oʻrganiladi.

Turk tili kelib chiqishiga koʻra Ural-oltoy (Ural-Altay) guruhiga mansub boʻlsa, tuzilishiga koʻra esa Agglutinativ (Bitişkin) tillarga mansub.

Turk tilini quyidagi davrlarga ajraladi:

1. Eng qadimgi turkiy til. Eramizdan oldingi va eramizning IV asriga qadar boʻlgan davri. Skif, xun, avar, pechenek va b.sh.
2. Qadimgi turkiy til. V- IX asrlarni oʻz ichiga olgan Koʻkturk davri.
3. Eski turkiy til . X- XIV asrlarni oʻz ichiga olgan Qoraxoniylar, Xorazmiylar va Chigʻatoy, Saljuqlilar davri.
4. Usmonli turk tili. XV- XIX asrlarni oʻz ichiga olgan Usmoniylar davri.
5. Xozirgi zamon turk tili. XX asrdan bugunga qadar boʻlgan Turkiya Jumhuriyati davri.

Eramizning VIII asridan bochlab, musulmonlikni qabul qilish bilan birga turkiy tilga arab tilining taʼsiri kuchli boʻldi. Sof turkiy soʻzlarini arabcha so`zlar siqib chiqara boshladi. Ahvol shu darajaga borib yettiki, oddiy xalq ziyolilar tilini yaxshi tushunmaydigan boʻldi. Mana shu davrda xalq ogʻzaki ijodining namunasi boʻlgan Karagöz sahna oʻyini yaratildi. Asar qahramoni Hacivet aralash, tushunarsiz gapiradigan ziyoli kishi, Karagöz esa turkiy tilda gapiruvchi oddiy xalq vakili.

Arab tilining turkiy tilga boʻlayotgan kuchli taʼsirini birinchilardan sezgan saljuqli Sulton Mehmet Karamanoʻgʻli 1277- yilda saroyda va davlat ishlarida faqat turk tili amal qilishi haqida qaror chiqargan.

Turkiy til faqat arab tilining emas, bundan tashqari fors tilining ham ta’siri ostida bo‘ldi. Natijada turkcha, arabcha va forscha aralashuvida yangi Usmonli turk tili (Osmanlıca) yuzaga keldi.

Usmonli imperiyasining barham topishi va Turkiya Jumhuriyatining e’lon qilinishi, keyinchalik lotin alifbosiga o‘tilishi Hozirgi zamon turk tilining maydonga kelishiga asos bo‘ldi. 1928- yilning 1- noyabrida qabul qilingan alifbo xalq tarixidagi to‘rtinchi alifbo sanaladi:

1. Ko‘kturk alifbosi (38 harfdan iborat).
2. Uyg‘ur alifbosi (14 harfdan iborat).
3. Arab alifbosi (29 harfdan iborat).
4. Lotin alifbosi (29 harfdan iborat).

1932 yilda Mustafo Kamol Otaturk tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkiya til kengashi ‘Türk Dil Kurumu’ Hozirgi zamon turk tilinig rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda.

TURK ALIFBOSI (TÜRK ALFABESİ)

Har qanday tilda qo‘llaniladigan tovushlarni ko‘rsatgan belgilar yig‘indisi ya’ni harflarning tartibli qatoriga alifbo deyiladi. Turk xalqi bugungi kunga qadar to‘rt xil alifbodan foydalangan.

1. Ko‘kturk alifbosi: O‘rxun Yenisey obidalarida V-V1 asrlarda qo‘llanilgan, 38 harfdan iborat. Qadimgi Germanlarning “run” yozuvidagi alifboga o‘xshaganligi sababli Ko‘kturk alifbosida yozilgan yozuv “Runik turkiy yozuv” deb nomlanadi.
2. Uyg‘ur alifbosi: Ko‘kturk alifbosidan keyin butun turkiy xalqlarning alifbosi hisoblangan. VIII-XV asrlarda keng qo‘llanilgan bo‘lib, 14 harfdan iborat.
3. Arab alifbosi: Arab istilosidan keyin musulmonlikni qabul qilish bilan birga arab alifbosidan ham foydalana boshlandi. Arab alifbosi 29 harfdan iborat bo‘lib, foydalanish juda katta muddatni X1- XX asr boshlarini o‘z ichiga oladi.

4. Lotin alifbosi: Bugungi kunda foydalanilayotgan lotin alifbosi 1928- yil 1-noyabr da qabul qilingan boʻlib 29 harfdan iborat. Ular:

Turkcha harflar	**Nomla-nishi**	**Talaf-fuzi**	**Turkcha harflar**	**Nomla-nishi**	**Talaffuzi**
A a	a	a	M m	Me	M
B b	be	b	N n	ne	n
C c	je	j	O o	qat. oʻ	rus. o
Ç ç	che	ch	Ö ö	yumsh.	yumsh.
D d	de	d	P p	oʻ	oʻ
E e	e	e	R r	pe	p
F f	fe	f	S s	re	r
G g	ge	g	Ş ş	se	s
Ğ ğ	yumsh.	yumsh.	T t	she	sh
H h	gʻ	gʻ	U u	te	t
İ i	xe	x	Ü ü	qat. u	qat. u
I ı	i	i	V v	yumsh.	yumsh.
J j	i	rus i	Y y	u	u
K k	j	ji	Z z	ve	v
L l	ke	k		ye	y
	le	l		ze	z

[Aa] – harfi turk tilida ikki xil boʻlib, “qalin”i ya’ni sof turkcha soʻzlarda uchrasa ağaç - daraxt, anne - ona, “ingichka”lari esa boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarda lale - lola, dikkat - diqqat uchraydi. [Bb] – harfi aynan oʻzbek tilidagidek talaffuz etiladi, baba - ota, bardak – stakan, [Cc] – harfi oʻzbek tilida “joʻja” soʻzida ishlatilgan “j” harfining aynan oʻzidir, cam - oyna (shisha), cadde - koʻcha, [Çç] – harfi ham oʻzbek tilidagi “changʻi” soʻzidagi “ch” harfi kabi talaffuz etiladi, çiçek - gul, çam - archa [Dd] – harfi ham oʻzbek tilidagi “d” harfi kabi talaffuz etiladi, dal - shox, dalga - toʻlqin, [Ee] – harfi oʻzbek tilidagi “eshik, egar, elak” soʻzlarida ishlatilgan “e” harfining aynan oʻzidir, ev -

uy, eldiven - qoʻlqop. Biz bu harfni oʻzbek tilida koʻrinishi oʻxshash boʻlgan “yelkan, yem, ” soʻzlaridagi “e” xarfi bilan adashtirmasligimiz kerak. [Ff] – harfi ham aynan oʻzbek tilidagi “f” harfi kabi talaffuz etiladi, fıçı - bochka, fırça - choʻtka. [Gg] – harfi ham oʻzbek tilidagi kabidir: gezi - sayohat, gül - atirgul. [Ğğ] – harfi haqida toʻxtalganda bu ham oʻzbek tilidagi “gʻayrat, gʻildirak” soʻzlaridagi “gʻ” harfiga oʻxshaydi deya olmaymiz. Sababi, turk tilidagi “ğ” harfi oʻzbek tilidagi “gʻ” harfidan yengil talaffuz etiladi: iğne - igna, eğlence - dam olish, eğitim - taʼlim. Ammo “dağanık - 1.betartib 2.parishon, doğmak - tugʻilmoq” soʻzlarida oʻzbek tilidagi “gʻ”ni eslatib, qattiqroq talaffuz etiladi. Shunga asosan turk tilida ikki xil “qalin” va “ingichka” “ğ” harfi mavjud deyishimiz mumkin boʻladi. Bundan tashqari turk tilida “ğ” harfi hech qachon soʻz boshida kelmaydi. Shu sababli turkcha lugʻatlarda “g” harfidan keyin “ğ” emas, “h” harfi bilan boshlanuvchi soʻzlarga oʻrin beriladi. [Hh] – harfi bilan boshlangan soʻzlar sof turkcha emas (1) deb qayd etiladi baʼzi manbalarda. Ammo ʻhatun - ayol, hani - qani, hangi - qaysiʼ soʻzlari sof turkcha boʻlsada, “h” harfi bilan boshlanishining sababi k > h ga oʻtganligidadir. Turk tilidagi , “h” harfi oʻzbek tilidagi qattiq “x” bilan birday talaffuz etiladi: havlu - sochiq, horoz - xoʻroz. [Iı] – harfining aynan talaffuzi oʻzbek tilida kuzatilmaydi. Turk tilidagi [Iı] – harfini rus tilidagi “i” harfining talaffuziga tenglashtira olamiz: ırmak - irmoq, ızgara - qoʻra. [İi] – harfi oʻzbek tilidagi “i” kabi talaffuz etiladi: İnek - sigir, ilaç - dori. [Jj] – harfini beruvchi tovush turk tilida mavjud emas. Turk tilida ushbu harf bilan boshlanuvchi soʻzlarning barchasi boshqa tillardan kirib kelgandir: Jaluzi - chiy parda, jimnastik - badan tarbiya. Turk tilidagi [Jj] – harfining ayni talaffuzini rus tilidagi “j” harfiga tenglashtirish mumkin. [Kk] – harfining talaffuzi oʻzbek tilidagi “k” kabidir: kafa - bosh, kalla, kaldırım - yoʻlak. [Ll] – harfi ham aynan oʻzbek tilidagidek talaffuz

etiladi: leke - dog‘, lira - lira, pul birligi. [Mm] – harfining talaffuzi ham o‘zbek tilidagidek: mısır - jo‘xori, makas - qaychi. [Nn] – harfi ham o‘zbekchadagi kabidir: ninni - alla, nine - buvi. Turk tilidagi [Oo] – harfini o‘zbek tilidagi “o‘”ga qiyoslay olmaymiz. Chunki o‘zbek tilidagi “o‘” ikki xil; qattik “o‘t” “maysa”, “olov” ma’nolarida va yumshoq “o‘takasi yorildi” shaklda uchraydi. Shu sababli o‘zbek tilidagi qattiq “o‘” va rus tilidagi “o” harfidek talaffuz etiladi deyishimiz mumkin: oda, olta. [Öö] – harfi o‘zbek tilidagi yumshoq “o‘”ga “o‘rdak, o‘takasi yorilmoq” teng. Turk tilida asosan birinchi bo‘g‘inda keladi. Agar birinchi bo‘g‘inda emas, ikkinchi yoki uchinchi bo‘g‘inda kelsa, o‘sha so‘z sof turkcha bo‘lmaydi: ödül - mukofot, ödev - vazifa, professör - professor, aktörlük - aktyorlik. [Pp] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagidek: pamuk - paxta, pancar - lavlagi. [Rr] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagidek: reçel - murabbo, raptiye - knopka. [Ss] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagidek talaffuz etiladi: salam - qaynatilgan kolbasa, saksı - gultuvak. [Şş] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagi talaffuzdan farq qilmaydi: şarkı - qo‘shiq, şampiyon - chempion. [Tt] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagidek: torba - xalta, paket, tutkal - kley. [Uu] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagi qattiq “u” dek misol uchun “U” kishilik III shaxs yoki ko‘rsatish olmoshi kabi : uçak - samolyot, uzay - fazo. [Üü] – harfi esa o‘zbek tilidagi yumshoq “u” ga teng misol “uch raqami”, “umid” so‘zlaridagi kabi: ütü – dazmol, üzüm - uzum. [Vv] – harfi bizga yaxshi ma’lumki, o‘zbek tilida ikkita: lab-tish “Vali” va lab-lab “sovun”. Turk tilidagi [Vv] harfi o‘zbek tilidagi lab-tish kabi talaffuz etiladi: vişne - olcha, vapur - paraxod. [Yy] harfi o‘zbek tilidagi “y” harfidek talaffuz etiladi: yengeç - qisqichbaqa, - yumurta - tuxum. [Zz] – harfi ham aynan o‘zbek tilidagidek talaffuz qilinadi: zil - qo‘ng‘iroq, zarf - konvert.

Yuqorida sanab o‘tilgan 29 ta harfning 8 tasi unli va 21 tasi undosh harflar sanaladi.

Topshiriqlar:

1. Turk alifbosini yod oling.
2. Yangi so‘zlarni yod oling.

Savollarga javob bering:

1.Alifbo nima?

2.Bugunga qadar turk xalqi qaysi alifbolardan foydalandi? Nomlarini va harflar sonini ayting.

3.Lotin alifbosida nechta unli va nechta undosh harflar bor?

GÜLMECE

Zeki Çocuk

Öğretmen Zeki’ye sormuş:
- Alfabeyi öğrendin mi Zeki?
- Öğrendim öğretmenim.
- Peki A’dan sonra ne gelir?
- Öteki harfler gelir öğretmenim.

Tanışma

Demir: Merhaba!
Canan: Merhaba!
Demir: Adınız ne?
Canan: Benim adım Canan, sizin adınız ne?
Demir: Benim adım Demir.
Canan: Sizinle tanıştığıma memnun oldum.
Demir: Ben de memnun oldum.
Canan: Nasılsınız?
Demir: Teşekkür ederim, iyiyim, siz nasılsınız?
Canan: Sağ olun, ben de fena değilim.
Demir: Görüşmek üzere!
Canan: Güle güle!

Yeni kelimeler



merhaba – salom
selam – salom
selâmünaleykum – asslomu alaykum
aleykümselam – vaaleykum assalom
günaydın – hayrli tong
iyi günler – hayrli kun
iyi akşamlar – hayrli oqshom (kech)
nasılsınız? – qandaysiz?
iyiyim – yaxshiman
fena değilim – yomon emasman
sağolun – rahmat
teşekkürler – tashakkur
adınız ne? – ismingiz nima?
görüşmek üzere – ko'rishguncha
allaha ısmarladık – xayr, xudo yor bo‘lsin
güle güle – xayr



Dialog

Ömer: Merhaba!
Aysel: Merhaba!
Ömer: Adınız ne?
Aysel: Benim adım Aysel, ya sizin?
Ömer: Benim adım Ömer.
Aysel: Sizinle tanıştığıma memnun oldum.
Ömer: Ben de memnun oldum, nasılsınız?
Aysel: Teşekkürler, iyiyim, siz nasılsınız?
Ömer: Sağolun ben de iyiyim.
Aysel: Haydi, görüşmek üzere.
Ömer: Güle güle.

Topshiriqlar-Alıştırmalar

1. Aşağıdaki boşlukları doldurunuz.

Quyidagi nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni yozing.

A: İyi günler

B: .....

A: .....

B: Benim adım Ayşe. Sizin adınız ne?

A: .....

2. Aşağıdaki kelimeleri özbekçeye tercüme ediniz.

Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Adınız ne? , Merhaba! , İyi geceler, Günaydın.

OLMOSHLAR (ZAMİRLER)

Ot bo‘lmagan holda ot o‘rnida qo‘llanadigan so‘z turkumiga olmosh deyiladi.

Turk tilida olmoshlar to‘rt bo‘limda ajratilib o‘rganiladi. Bular quyidagilardir.

Kişi zamirleri: Tekil; ben, sen, o. Çoğul; biz, siz, onlar, kendi.

Shaxs nomlari o‘rnida qo‘llaniladigan olmoshlarga kishilik olmoshlari deyiladi. Turk tilida o‘zlik olmoshi sanaluvchi *kendi* olmoshi ham kishilik olmoshi sanaladi va ularning ichida o‘rganiladi. Kendi olmoshi barcha kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanila oladi.

İşaret zamirleri: Tekil; bu, şu, o. Çoğul; bunlar, şunlar, onlar, beriki, öteki.

Soru zamirleri: kim? ne? nasıl? ne zaman? nerede? kaç? hangi? nerede?

Belgisiz zamirler: bir kaç, biri, kimi, bazı, hepsi, çoğu, birtakım, birazı.

Shulardan gumon olmoshlarining vazifasi predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy (abstrakt) va taxminli ishora qiladi.

Eslatma: Turk tilida “insan” “adam” kabi so‘zlar ham o‘rni bilan gumon olmoshlari ma’nosida ishlatiladi.

İnsana bir sorarlar değil mi?

Adam ahbabından belli olur.

Ushbu gaplarda ifodalangan “insan” “adam” kabi so‘zlar gumon olmoshlari vazifasida “har qanday kishi” ma’nosini ifodalamoqda.

Şahis Zamirleri –Kishilik olmoshlari

Birinci Tekil Şahıs → Ben

İkinci Tekil Şahıs → Sen

Üçüncü Tekil Şahs→ O

Birinci Çoğul Şahıs → Biz

İkinci Çoğul Şahıs → Siz

Üçüncü Çoğul Şahıs → Onlar

Mashq. *Atoqli otlarning o‘rniga kishilik olmoshlarini qo‘ying. Altı çizili özel isimler yerine kişi zamirleri koyunuz.*

1.Yıldız ders çalışıyor.

2.Erol ve Kaya birlikte çalışıyorlar.

3.Orhan’ın babası evdedir.

4.Deniz’i telefona çağırıyorlar.

5.Uğur’dan bir mektup bekliyoruz.

6. Kitaplarımı Ayhan’a veriyorum.

7.Hasan’da güzel araba var.


Konuşmada çok kullanılan deyimler–
So‘zlashuvda ko‘p qo‘llaniladigan so‘z va iboralar

1. Nasılsınız? – Yaxshimisiz? Ishlaringiz yaxshimi?
2. Ne var ne yok? – Qanday yangiliklar bor? Nima gaplar olamda?
3. Neyiniz var? – Sizga nima bo‘ldi? Sizni nima bezovta qiladi?
4. Teşekkür ederim, iyiyim. – Rahmat, yaxshiman.
5. Ne var? – Nima gap?, Nima bo‘ldi?
6. Güzellik sağlık! – Hammasi yaxshi.
7. Değişen bir şey yok. – Hammasi yaxshi, yangiliklar yo‘q.
8. Size nasıl yardımcı olabilirim. – Qanday qilib sizga

yordam bersam bo‘ladi.

2-DARS

UNLILAR VA ULARNING TASNIFI. UNLILAR UYG’UNLIGI



Kelime çalışması – So‘z boyligi: “Hal hatır sorma”- Hol ahvol so‘rash. Nasılsınız? Dialog.

Ayrılma – uğurlama – vedalaşma: *Görüşmek üzere; Güle güle; Hoşça kalın; Allaha ısmarladık; İyi günler; İyi akşamlar; İyi geceler.*

Unli tovushlar va ularning tasnifi (Sesliler ve sesli sınıflandırılması)

Tovush tilning eng kichik bo‘lagidir. So‘zlashuv, kelishuv va til, tovush va tovush guruhlari asosida yuzaga keladi. Turk adabiy tilida sakkiz unli fonema mavjud. Bular: [a], [e], [ı], [i], [o], [ö], [u], [ü].

Og‘izdan hech bir to‘siqqa uchramasdan chiqadigan tovushlarga ***unli tovushlar*** deyiladi. Bu unli tovushlar og‘izdan chiqishdagi ovozning toni, lablarning va jag‘larning holatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

A. Tovush toniga ko‘ra:

1) Orqa qator (***Qalin)(kalın) unlilar*** ; [a], [ı], [o], [u].

Bu unlilar talaffuz etilganda tillar beixtiyor orqaga tortilib, tovush og‘iz bo‘shlig‘ining orqa qismida yuzaga keladi va yo‘g‘on talaffuz etiladi. Shu sababli o‘zbek tilshunosligida bu tovushlarga orqa qator unlilar deyiladi.

2) Old qator (***Ingichka) (ince) unlilar***; [e], [i], [ö], [ü].

Bu unlilar talaffuz etilganda tillar orqaga tortilmaydi. Tovush og‘iz bo‘shlig‘ining oldingi qismida

yuzaga keladi va qalinlarga koʻra ingichka talaffuz etiladi. Shu sababli old qator unlilar ham deyiladi.

B. Lablarning holatiga koʻra:

1) ***Lablanmagan (düz) unlilar***; [a], [e], [ı], [i].

Ushbu unlilar talaffuzida lablar ishtiroki kam boʻlib, shakllarini oʻzgartirmaydi. Shu sababli lablanmagan deyiladi.

2) ***Lablangan (yuvarlak) unlilar***; [o], [ö], [u], [ü].

Ushbu unlilar talaffuzida lablar beixtiyor dumaloq shaklga kirib, faol harakat koʻrsatadi. Shu sababli lablangan unlilar deyiladi.

C. Jagʻlarning holatiga koʻra:

1) ***Keng (geniş) unlilar;*** [a], [e], [o],[ö].

Bu unlilar talaffuz etilganda jagʻ suyaklarimiz pastga harakat qilib, ogʻiz keng ochiladi. Shundan kelib chiqqan holda keng unlilar deyiladi.

2) ***Tor (dar) unlilar;*** [ı], [i], [u], [ü].

Bu unlilar talaffuz etilganda jagʻ suyaklar pastga harakat qilmaganligi sababli ogʻiz keng ochilmaydi. Shu sababli bu unlilar tor unlilar deyiladi.

Ushbu tasnifni quyidagi jadvalda shu tarzda koʻrish mumkin:

Lablanmagan (düz)			**Lablangan (yuvarlak)**	
Orqa qator, Qalin (Kalın)	**Keng (geniş)**	**Tor (dar)**	**Keng (geniş)**	**Tor (dar)**
	a	ı	o	u
Old qator, Ingichka (İnce)	e	i	ö	ü

Yuqorida tasnif asosida unlilarga quyidagicha xarakteristika berish mumkin:

a	Qalin, keng, lablanmagan	ağaç, bal, nar

e	Ingichka, keng, lablanmagan	ev, emek, ekmek
ı	Qalin, tor, lablanmagan	ırmak, ızgara, ışık
i	Ingichka, tor, lablanmagan	inek, iş, dil, iki
o	Qalin, keng, lablangan	oda, yol, omuz
ö	Ingichka, keng, lablangan	ödev, ödül, örmek
u	Qalin, tor, lablangan	uçak, umut, uşak
ü	Ingichka, tor, lablangan	ütü, üç, üşütmek

Turk tilida unli fonemalarning tutgan o‘rni juda muhimdir. Turk tilini boshqa tillardan ajratuvchi muhim xususiyat ham mana shu unli fonemalarda namoyon bo‘ladi.

Mavzu bilan bog‘liq savollar:

1. Turk tilida nechta unli fonema mavjud?
2. Unli fonemalar qanday hosil bo‘ladi?
3. Unli fonemalar nimaga asoslangan holda tasnif etiladi?
4. Har bir unli fonemaga yoddan xarakteristika bering.

1-mashq. *Aşağıdaki kelimelerin ünlü ve ünsüzlerini söyleyiniz. Quyidagi so‘zlarning unli va undosh harflarini ajrating.*

Örnek, küçük, bıçak, çatal, fırın, ekmek, yemek, gazoz, ünlü, var, yok, zil, çırak, lamba, fırın, masa, su, sıcak, müz, şelale, zirve, pamuk, Türkiye, salı, alfabe, yazı, büyük, şişman, tatlı, dalga, yakamoz, fil, vatan, ülke, sınır.

2-mashq. *Aşağıdaki kelimelerde bulunan ünlülerin çeşitlerini söyleyiniz. Quyidagi so‘zlarda mavjud bo‘lgan unlilarning turlarini ayting.*

Araba, gemi, limon, lamba, silgi, tahta, tebeşir, tarak, lira, hayat, ev, köşk, soğan, kadın, çorba, dal, köşe, tavan, kenar, dip, sandalye, mektup, sıra, kalem, usta, defter, arı, üşak, köle, efendi, bayan, erkek.

Konuşma – Suhbat

Hal sorma

Leyla: Nasılsın, Hakan?!
Hakan: İyiyim, Leyla, teşekkürler!
Leyla: Hiç gözükmüyorsun ortalıkta. Neyin var?
Hakan: Önemli bir şey yok. Bir az uşutmuşum.
Leyla: A, dedim işte, ne durakta, ne de okulda göremedim seni. Geçmis olsun! Doktora gittin mi?
Hakan: Evet, muayene oldum. Sen nasılsın?
Leyla: Teşekkür ederim. Seni gördüm daha iyi oldum. Dersler çok. Koşturup duruyoruz. Acelem var, kusura bakma, kütüphaneye gidiyorum. Kendine iyi bak. Görüşürüz.
Hakan: Tabii, görüşmek üzere.
Leyla: Güle güle. Hoşça kal.

Topshiriqlar-Alıştırmalar

1. Aşağıdakileri eşleştiriniz. Quyidagilarni birlashtiring.

1. Nasılsınız?	a. Ben de memnun oldum.
2. Hoşça kalın.	b. İyiyim.
3. Adın ne?	c. Güle güle
4. Memnun oldum.	d. Adım Hakan.

2. Aşağıdaki test sorularını cevaplayınız. Quyidagi testlarning to‘g‘ri variantini toping.

1. Sizin adınız ne?
A. Teşekkür ederim
B. Günaydın
C. Adım Serdar
D. İyi günler
2. Nasılsınız?
A. İyiyim, teşekkür ederim
B. Güle güle
C. İyi geceler
D. Günaydın
3. Hoşça kalın
A. İyiyim

B.Güle güle
C.Teşekkür ederim
D.Merhaba

3. Aşağıdaki diyaloğu tamamlayınız. Quyidagi dialogni to‘ldiring.

A: Adınız ne?
B: ..... Sizin adınız ne?
A: .....
B: .....
A: Teşekkür ederim. İyiyim.

4. Aşağıdaki kelimeleri tercüme ediniz. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Nasılsınız: Tanıştığımıza memnun oldum.
Hoşça kalın: Güle güle:

Turk tilida unlilar uyg‘unligi (Türkçede ünlü uyumu)

Singarmonizm hodisasi **–** bu so‘zdagi tovushlarning bir biriga va o‘zakka qo‘shilgan qo‘shimchalarning talaffuziga ko‘ra uyg‘unlashuvidir. Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi unlilar tizimida ham undoshlar tizimida ham amal qiladi. Turk tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan singarmonizm qonuni bu tilning muhim jihatlaridan biri sanaladi. Bu qonun turk tilidan boshqa faqat turk tili bilan bir guruhda bo‘lgan Ural Oltoy tillarida mavjud.

Unlilarda singarmonizm ikki xil bo‘ladi: tanglay uyg‘unligi (Büyük ses uyumu) va lab uyg‘unligi (Küçük ses uyumu).

1.Tanglay uyg‘unligi (Büyük ses uyumu) qonuniga ko‘ra so‘zning birinchi bo‘g‘inida qalin unli harflardan (a,ı,o,u) biri kelsa, undan keyingi bo‘g‘inlarda ham qalin unlilardan biri (a,ı,o,u) keladi.

Agar so‘zning birinchi bo‘g‘inida ingichka unlilardan biri (e,i,ö,ü) kelsa, undan keyin kelgan bo‘g‘inlarda ham ingichka unlilardan biri (e,i,ö,ü) keladi.

Masalan:

Do-lap-lar-ı-mız-ı , ge-lin-cik-ler-den

O-kul-u-muz-u , çi-çek-çi-lik-ten

2. Lab uyg‘unligi (Küçük ses uyumu) qonuniga ko‘ra so‘zning birinchi bo‘g‘inida lablanmagan unlilardan (a,ı,e,i) biri kelsa, undan keyingi bo‘g‘inlarda ham lablanmagan (a,ı,e,i) unlilar keladi. Agar so‘zning birinchi bo‘g‘inida lablangan unlilardan (o,u,ö,ü) biri kelsa, undan keyin kelgan bo‘g‘inlarda, yo tor lablangan (u,ü) unlilardan biri, yoki lablanmagan keng (a,e) unli harflardan biri keladi.

Masalan:

Ka-rın-ca-lar-dan, göz-lük-cü-lük-ten

A-ra-ba-lar-ı-mız-ın, öğ-ret-men-li-ğin

Mavzu bilan bog‘liq savollar:

1. Singarmonizm hodisasi deganda nimani tushunasiz?
2. Singarmonizm hodisasi qaysi tovushlarda uchraydi?
3. Unlilarda singarmonizm hodisasi necha qismga ajraladi?
4. Tanglay uygunligi qonuni qanday qonun?
5. Lab uyg‘unligi qonuni deganda nimani tushunasiz?

Eslatma: Tanglay va lab uyg‘unligi qonunida adashmaslik uchun unlilar tasnifi jadvalini yod oling.

Topshiriq:

1. Turk tilida bilgan so‘zlaringizni yozing. Ular unlilar uyg‘unligi (singarmonizm) qonuniga mos keladimi yo‘qmi aniqlang.

1-mashq. Kelimeleri dikkatle okuyunuz. So‘zlarni diqqat bilan o‘qing.

a --> a, ı	ana, bağlamak, basın, basınç, barış
ı --> a, ı	kılık, kışın, kısa, sıcak, kıyma

o --> a, u	torun, tolga, tohum, soluk, topuk
u --> a, u	tuğla, kuru, yulak, kurşun, kulak
e --> e, i,	tekir, tekin, kesim, keskin
i --> e, i,	piliz, pire, pinti, tiksinti, tilki
ö --> e,ü	özgür, özür, kömür, köle, köpek
ü--> e,ü	gülmek, hüner, dünür, püflemek, püskürtü

ANNE

Anne, zannetme ki günler geçti de
Değişti evvelki hissim gitgide!
Bir hırçın çocuğum değişmez huyum
Seneler geçse de
Ben yine buyum!
Senden umuyorum teselli yine!
Bugün şevkatın, muhabbetine
Zanneder misin ki yok ihtiyacim?
Belki eskisinden daha muhtacım!

Orhan Seyfi ORHON

Yeni kelimeler

zannetmek – o‘ylamoq
geçmek – o‘tmoq
hırçın – sabrsiz, betoqat
değişmek – o‘zgarmoq
ummak – umid qilmoq, kutmoq

Konuşmada çok kullanılan deyimler – So‘zlashuvda ko‘p qo‘llaniladigan so‘z va iboralar

1. Hoş geldiniz! - Xush kelibsiz!
2. Allaha ısmarladık! - Xayr! Xudo yor bo‘lsin!
3. Güle güle! - Xayr! Yaxshi qoling!
4. Hoşça kalın! - Yaxshi qoling!
5. Yolunuz açık olsun - Yo‘lingizni bersin!
6. İyi yolculuklar - Oq yo‘l!


3-DARS

TURK TILIDA UNLI MOSLASHUVI QONUNIYATIGA ZID HODISALAR (ÜNLÜ UYUMUNA AYKIRI DURUMLAR)

Konuşma – Suhbat “Sınıf eşyaları” Sinf anjomlari. Sınıf eşyaları ile igili kelimeler. “Sınfımız” metni. Bizning sinf.

Unli singarmonizmiga mos kelmaydigan qonunlar

(Ünlü uyumuna uymayan kurallar)



Til jonli jarayondir. Turk tili o‘zining ichki qonunlariga to‘la amal qiladigan tillardan biri bo‘lishiga qaramay, uning tizimida doimiy ravishda fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, stilistik o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Til taraqqiyoti natijasida singarmonizm qonuniga mos kelmaydigan istisnolar yuzaga keldi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Sof turkcha so‘z bo‘lishiga qaramay Istanbul shevasida yumshagan so‘zlar:

ana – anne, alma – elma, karındaş, kardaş – kardeş, halva – helva ...

Bu so‘zlar qadimda unli uyg‘unligiga mos kelgan bo‘lsada, keyinchalik shevada buzilgani kuzatiladi.

2. Qo‘shma so‘zlar ham unlilar uyg‘unligiga mos kelmaydi:

Atatürk, başkent, karabiber, hanımeli, Karadeniz, akciğer, gecekondu...

Boshqa boshqa so‘zlarning birlashib yangi so‘z yasashida singarmonizm hodisasining buzilishi tabiiy hodisa hisoblanadi.

3.Turk tilida qo‘shimchalar so‘zning unlilar uyg‘unligiga moslashadi. Ammo ba’zi bir qo‘shimchalar istisno tashkil qiladi. Bular: - yor, -ken, - ki, - leyin, -(i)mtırak.

Geliyor, yazarken, yarınki, Akşamleyin, yeşilimtırak...

Bu qo‘shimchalarning tovush uyg‘unligiga mos kelmasligining sababi, qadimda bu qo‘shimchalar mustaqil – yor > yurur, -ken > iken, - ki > kim ....so‘zlar bo‘lganligidadir.

4.Turk tiliga xorijiy tillardan kirgan so‘zlar singarmonizm qonuniga mos kelmaydi:

Televizyon, telefon, Ahmet, asansör, aktör, dikkat, emsal ...

1. Eslatma: Turk tilining ichki qonunlariga ko‘ra ikki unli harf yonma-yon kelmaydi. Qo‘llanilayotgan yonma-yon ikki unli harfi bo‘lgan so‘zlar turk tiliga xorijiy tillardan kirgan. Masalan:

saat, şiir, aile, kooperatif, fiil, caiz ... kabi.

Turk tilida, faqat qo‘shma so‘zlarda ikki unli yonma yon kelishi mumkin:

Karacaoğlan, Kocaeli ...

2. **Eslatma:** Yuqorida ta’kidlanganidek, ikki unli harf yonma-yon kelmaydi. Shu sababli, unli harf bilan tugagan so‘zga yana unli harf bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilsa, orasiga bir bog‘lovchi tovush orttiriladi. Turk tilida to‘rtta “Y- Ş- S- N” bog‘lovchi (kaynaştırma) harfi mavjud. Bularga turk tilida “Kaynaştırma Harfleri” (Bog‘lovchi harflar) deyiladi. Masalan:

baba - s - ı , altı - ş - ar , kapı - y - a , Ayşe - n -in.

Bog‘lovchi harflar “Kaynaştırma Harfleri” ni yodlash uchun “YAŞASIN” so‘zidagi unli harflarni chiqarib tashlaymiz. Qolgan undosh harflar bog‘lovchi harflarni tashkil etadi.

Ushbu bog‘lovchi harflardan qaysi biri qachon qo‘llanilishi bilan bog‘liq hech qanday qoida mavjud

emas. Shu sababli ularni matnlar ichida o‘rganish orqali bilib olish mumkin bo‘ladi.

1-mashq. *Quyidagi so‘zlar bilan qo‘shimchalar orasiga mos bog‘lovchi harflardan birini qo‘ying. Aşağıdaki sözcüklerle eklerin arasına uygun kaynaştırma harflerini koyunuz.*

masa + * + a pencere + * + in
yedi + * + er kızı + * + a
bahçe + * + e demokrasi + * + in
abla + * + ı kitabı + * + ı

2-mashq. *Quyidagi so‘zlarning qaysi biri singarmonizm qonuniga mos emas? Aşağıdaki kelimelerden hangileri ses uyumuna uymuyor?*

Direksiyon, televizyon, masa, asansör, Fenerbahçe, kardeş, tren, Pazartesi, polis, tarak, kömür, geziyor, öğleyin, karnabahar, patates, sivrisinek, yazarken, odun, çorba, ekmek, pasta, suyu, terlik, bıyık.

3-mashq. *Quyida berilgan so‘zlarga singarmonizm hodisasiga mos kelmaydigan qo‘shimchalarni qo‘ying. Aşağıdeki sözcüklere, ses uyumu kuralına uymayan eklerini ulayınız.*

sabah + ...= ( ) mavi + ...= ( )
yarın + ...= ( ) al + ...= ( )
sonra + ...= ( ) söyle + ...= ( )
yeşil + ...= ( ) gül + ... = ( )
siyah + ...= ( ) burada + ... = ( )

SINIF EŞYALARI

sınıf – sinf
tahta – doska
tebeşir – bo'r
silgi – o'chirg'ich
masa – parta
sandalye – stul
harite – xarita



tablo – jadval
jalüzi – jalyuzi
klima – konditsioner
avize – qandil
priz – razedka
fiş – elektrik vilkasi
kalorifer – isitgich
kova, çöp sepeti – axlat chelagi
elektrik düğmesi – chiroq tugmasi
duvar – devor
tavan – shift
taban – pol
ecza kütüsü – dori qutisi
bilgisayar – kompyuter
denizlik – tokcha
kapının kolu – eshiknıng ushlagichi
kapı – eshik
pencere – deraza
raf – javon



Bizim Sınıf

Bizim sınıfımız geniş, aydın ve temizdir. Sınıfımız Enstitümüzün altıncı katında bulunmaktadır. Sınıfımızın kapı numarası № 601'dir. Sınfımızda yirmi sıra, bir öğretmen masası, sandalye, televizyon, teyp var. Televizyonda Türkçe filmler seyrediyoruz, teypte ise Türkçe derslerimizle ilgili kasetler dinleyip, aldığımız bilimleri geliştiriyoruz. Sınifımız duvarlarında Türkiye ile ilgili hariteler ve Türkiye'yi anlatan çeşitli tablolar yer almaktadır. Ayrıca, sınfımız dört mevsimde aynı ilk bahar havasını taşıyan saksılardaki rengarenk çiçeklerle gönüllerimizi aydınlatır. Sınıfımızda bulunan klima sıcak günlerde bizi serinletiyorsa, kaloriferler ise kış günlerinde bizi soğuktan korur. Dolap ve raflarda Türk dili kitapları yer almaktadır. Sınıfımız on erkek ve dört kız çocuk olmak üzere toplam on dört öğrenciden oluşuyor. Hepimiz bu sene liseden mezun olarak Üniversiteyi kazandık. Amacımız dili iyi öğrenip, çeşitli kuruluşlarda çalışıp, ülkemizin gelişmesine katkıda bulunmaktır.

Yeni kelimeler– Yangi so'zlar

geniş – keng

aydın – yorug‘
seyretmek – tomosha qilmoq
temiz – toza
ilgili – bog‘liq
mezun olmak – o‘qishni tamomlamoq
bulunmak – joylashmoq
saksı – gul tuvak
kazanmak – o‘qishga kirmoq, erishmoq
katkıda bulunmak – hissa qo‘shmoq
çeşitli – turli
kuruluş – tashkilot
askı – ilgak
takvim – taqvim

Sorular:

1. Sınfımız nerede bulunmakta?
2. Sınıfta nasıl eşyalar yer almakta ve onlar neye yarar?
3. Sınıf kaç kişiden oluşmaktadır?
4. Neden türkçe öğreniyorsunuz?

KIRTASİYE EŞYALARI



adres defteri = not defteri – bloknot
dosya – qog‘ozlar qo‘yiladigan papka
kalem traş – qalam tarosh, qalam ochgich
zarf – konvert

yedek kalem ucu – ruchka yoki qalam zapasi
kurşun kalem – qora qalam
tükenmez kalem – sharikli ruchka
dolma kalem – avtoruchka
defter – daftar
kitap – kitob
pul – marka
zımba – stepler
karbon kağıdı – yozuvni tushuradigan qora qoğoz
harite – harita
tutkal – kley
cetvel – lineyka
boya kalemi – rangli qalam
kağıt – qog‘oz
ambalaj kağıdı – o‘raydigan qog‘oz
kart postal – otkritka
raptiye = ataç – skrepka
sulu boya – rasm bo‘yog‘i
mürekkep – siyoh

Topshiriqlar – Alıştırmalar

4-mashq. *Quyidagi harflarni joy-joyiga qo‘yib, sinf anjomlari nomini toping. Aşağıdaki karışık kelimelerden sınıf eşyalarının adını bulunuz.*

Masalan: Amas→ masa

1. Dalyesan
2. Tarieh
3. Rası
4. Zıay tasıtah
5. Cerenep
6. Tapki
7. Apkı
8. Antarha
9. Far
10. Kutlok
11. Levtec

12.Kasma
13.Poç tisepe
14.Nezaec

5-mashq. *Quyidagi savollarga javob bering. Aşağıdaki soruları cevaplayınız.*

1. Sizin kitabınız nerede?
2. Masa üstünde ne var?
3. Bu kimin zımbası?
4. Konuyu defterinize yazdınız mı?

6-mashq. *Quyidagi so‘zlarning mosini topib gap tuzing. Aşağıdaki kelimeleri eşleştirin ve cümle kurun.*

Ev ödevi	yazmak
Kitap	yapmak
Televizyon	kesmek
Defter	seyretmek
Sandalye	okumak
Makas	oturmak
Bilgisayar	oynamak

7-mashq. *Turk tiliga tarjima qiling. Türkçe’ye çeviriniz.*

Bizning sinfimiz juda chiroyli. Sinfimizda kitob javoni, yozuv taxtasi, stol va stullar bor. Sinf xonamiz yorug‘ va keng. Sinfimiz institutnıng oltinchi qavatida joylashgan. Biz, o‘quvchilar sinfimizning tozaligiga e’tıbor beramiz.

8-mashq. *Sinfdagi predmetlarning nomlari ishtirok etgan gaplar tuzıng. Masalan; Tahtaya tebeşirle yazıyoruz. Sınıf eşyalarının adlarını kullanarak cümleler kurunuz.*

9-mashq. *Quyıdagi tarzda savol- javob qiling. Örnekteki gibi diyaloglar oluşturunuz.*

-Silgi niçin gerek?- Tahtayı silmek için.

ÖĞRETMENLER GÜNÜ

Ahmet Bey bir ortaokulda Türkçe öğretmenidir. Mesleğini ve öğrencilerini çok sever. Onun iş arkadaşları ve öğrencileri Ahmet Bey'i çok severler.

Ahmet Bey işine tam vaktinde gelir, derslerine hazırlanıp girer, çok bilgili ve iyi bir öğretmen olarak öğrencilere bir şeyler öğretmek için, her ders konusu üzerinde dikkatle durur, kısacası hep mesleği ve öğrencileri için çalışır, çabalar.

Bir gün dersten önce öğrenciler öğretmenlerine bir sürpriz yapmaya karar verdiler. Ahmet Bey sınıftan içeri girince onu hep birden neşeyle "Öğretmenler Gününüz kutlu olsun!" diyerek kutladılar. Evet o gün öğretmenler günüydü. Ahmet Bey, "Bu zamana kadar Öğretmenler Günü olduğunu nasıl unuttum" diye düşündü. Ama artık bu önemli değildi, çünkü öğrencilerinin bu günü hatırlamaları yeterliydi. İşte bundan çok mutluluk duydu, çok duygulandı. Öğrencilerine teşekkür etti ve aslında bu günün yalnız kendisinin değil, aynı zamanda öğrencilerin de özel bir günü olduğunu söyledi. Ahmet Bey derse başlamak istedi. Derse her zamanki gibi zevkle, heyecanla başladı.

Konuşmada çok kullanılan deyimler -
So'zlashuvda ko'p qo'llaniladigan so'z va iboralar


1. Elinin emeğiyle yaşamak. – Peshona teriga yashash.
2. Hoşbeşten sonra... – Salom alikdan keyin...
3. Su gibi bilir, okur... – Juda yaxshi biladi, o'qiydi
4. Boş ver... – Qo'y, e'tibor berma.
5. Hayırlı olsun! – Muborak bo'lsin! Qutlug' bo'lsin!
6. Ufak tefek ... – Mayda chuyda...
7. Üst(ü) baş(ı) ... – Egni boshi, kiyimi...
8. Yola koyulmak – Yo'lga chiqmoq.

4-DARS

UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING TASNIFI (ÜNSÜZLER)

Kelime çalışması – So‘z boyligi. Gün. Hafta günleri- Hafta kunlari Bugün günlerden ne? Dialog.

Undoshlar va ularning tasnifi (Ünsüzler ve onların sınıflandırılması)



Tovush yo‘lida to‘siqlarga uchrab bir unlining yordami bilan talaffuz etiladigan tovushlarga undoshlar deyiladi. Turk tilining undoshlar tizimida 21 ta fonema mavjud. Bular: b, c, ç, d, f, g, ğ, h, j, k, l, m, n, p, r, s, ş, t, v, y,z.

Turk tilida undosh fonemalar xuddi o‘zbek tilidagidek mukammal o‘rganiladi. Ammo undosh fonemalarning xususiyatlari haqida so‘z borganda funksional jihatlari haqida to‘xtalish muhimdir.

Turk tilshunosligida undoshlar avvalo tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1)Jarangsiz undoshlar (sert ünsüzler) 8 ta; f, s, ş, h, ç, k, p, t. Tovush paychalarini titratmasdan hosil bo‘lgan undoshlarga jarangsiz undoshlar deyiladi.

Bu undoshlarni yodda saqlab qolish uchun FISTIKÇI ŞAHAP birikmasini eslab qolib, birikmadagi unli fonemalarni olib tashlaganda qolgan undoshlar jarangsiz ekanligini nazarda tutish zarur.

2)Jarangli undoshlar (yumuşak ünsüzler) esa 13 ta; b, c, d, g, ğ, j, l, m, n, r, v, y, z. Tovush paychalarini titratib hosil bo‘ladigan undoshlarga jarangli undoshlar deyiladi.

Talaffuziga (aytilish usuliga) ko‘ra ham ikkiga bo‘linadi:

1) Sirg‘aluvchi undoshlar (sürekli ünsüzler); f, h, ş, s, ğ, j, l, m, n, r, v, y, z. Sirg‘aluvchi tovushlar talaffuz qilinganida nutq organlari havo yo‘lini to‘sadi, lekin orada qolgan kichik tirqishdan havo sirg‘alib chiqadi. Shu yo‘l bilan hosil bo‘luvchi undoshlarga sirg‘aluvchi undoshlar deyiladi.

2) Portlovchi undoshlar (süreksiz ünsüzler); ç, k, p, t, c, g, b, d. Portlovchi undoshlar talaffuzida havo yo‘li birdan to‘silib, yana birdaniga ochilishi natijasida “portlash” yuz beradi. Tovush yo‘lida to‘siqqa uchrab, portlash shaklida aytiladigan undoshlarga portlovchi undoshlar deyiladi.

Bularni quyidagi shaklda jadvalda ifoda etish mumkin;

Jarangsiz (sert)		**yumshoq(yumuşak)**
Sirg‘aluvchi (sürekli)	f, h, s, ş	ğ, j, l, m, n, r, v, y, z
Portlovchi (süreksiz)	ç, k, p, t	c, g, b, d

Mavzu bilan bog‘liq savollar:

1. Qanday fonemalarga undosh fonemalar deyiladi.
2. Turk tilida nechta undosh fonema mavjud?
3. Qattiq undoshlarni yodda saqlash uchun nima qilish zarur?
4. Undosh fonemalarning nechtasi yumshoq fonema?
5. Undoshlar tasnifida asosan qaysi jihatiga ahamiyat beriladi?

Eslatma: *Undoshlar tasnifi jadvalini yod oling.*

GÜN VE HAFTA GÜNLERİ

Bir gün altı bölümden oluşur: sabah, kuşluk, öğle, ikindi, akşam, gece

Günleri şöyle anlatabiliriz: Geçen gün; Dün; Bugün; Yarın; Obürüsügün.

60 saniye 1 dakikayı oluşturur, 60 dakika 1 saati olşturur, 24 saat 1 Günü oluşturur.

Bir gün sabah, kuşluk, öğle, ikindi, akşam, geceden oluşur.

7 Gün 1 haftayı oluşturur:



Pazartesi - Dushanba
Salı - Seshanba
Çarşamba - Chorshanba
Perşembe - Payshanba
Cuma - Juma
Cumartesi - Shanba
Pazar - Yakshanba

Şiiri ezberleyiniz! Bu she’rni yod oling!

Hafta günleri

Hafta günleri yedidir yedi
Yedidir yedi sayın bakın
Pazertesi ders var
Okullar başlar
Salıya var beş ders
Çalışsın herkes
Çarşamba geç kalma
Uykuya dalma
Perşembe geç gelme
Yolda eğlenme
Cuma geldi gayret
Tatili hak et
Cumartesi Pazar
Çocuklar oynar



1. Aşağıdaki soruları okuyunuz ve tekrar ediniz. Quyidagi savollarni o‘qing va takrorlang.

1.- Bugün günlerden ne?
- Bugün günlerden Pazartesi.
2.- Yarın günlerden ne?
- Yarın günlerden Salı.
3.- Bugün Salı mı?
- Hayır, bugün Salı değil.

4.- Bugün matematik var mı?
- Evet, var.
5. - Yarın müzik var mı?
- Hayır, yok.

2. Aşağıdaki cümlelerden doğru olanın başına ‘D’; yanlış olanın başına ‘Y’ yazınız.

Qavs ichiga to‘g‘ri tuzilgan gap qarshisiga ‘D’ harfini noto‘g‘ri tuzilgan gap qarshisiga ‘Y’ harfini yozing.

1.( ) Bugün günlerden Salı.
2.( ) Yarın günlerden Cuma.
3.( ) Pazar günü tatil.
4.( ) Hafta sonu günleri Cumartesi ve Pazardır.
5.( ) Bugün kimya dersi yok.


Ahmet Bey

Bu gece Ahmet Bey çok kızgın. Vakit çok geç. Ama o yatağında oturuyor ve saatine bakıyor. Çünkü komşuları gürültü yapıyor. Ahmet Bey ise kızıyor. Sağ yan komşusu dans ediyor. Sol yandaki komşuları odasını süpürüyor. Üstteki komşu keman çalıyor. Alttaki komşuları ise kavga ediyorlar. Karşıdaki komşunun çocuğu hasta. Çocuk devamlı ağlıyor. Bir de dışarıda köpek durmadan havlıyor.

Şu durumda nasıl uyuyabiliyorum diye düşünüyor.

Yönler – tomonlar

Küzey doğu Küzey Küzey doğu



Batı Doğu

Güney batı Güney doğu

Güney

sağ – o‘ng
sol – chap
ön – old
arka – orqa
sağ yan – o‘ng yon
sol yan – chap yon
üst – ust
alt – ost
iç – ich
dış – tashqi
aşağı – past
yukarı – tepa
önünde – oldida
yanında – yonida
arkasında – orqasida
köşesinde – burchagida
kenarında – chekasida, qirg‘og‘ida
kıyısında – qirg‘og‘i
kuytu – eng chekka burchagi, juda uzoq

Benim Ülkem

Ben Özbekistan’da yaşıyorum. Özbekistan’ın başkenti Taşkent’tir. Özbekistan dünyanın Asya bölgesinde yer almaktadır. Benim ülkem bağımsızlığını 1 Eylül 1991 tarihinde kazanmıştır. Benim ülkem beş ülke ile; Küzeyde Kazakistan, Doğuda Kırgızıstan ve Tacikistanla, Güneyde Afganistan, Batıda ise Türkmenistan’la komşu bulunmaktadır.

Benim ülkem on iki il ve bir Muhtar Cumhuriyeti kapsıyor. Özbekistan’ın Buhara, Semerkand, Hiva, Kokand, Karşı gibi dünyaca tanınmış tarihi şehirleriyle birlikte Almalık, Angren, Çirçik, Nevai, Fergana gibi

sanayı şehirleri mevcut. Her şehirde Üniversiteler, kütüphaneler, müzeler ve çeşitli araştırma merkezleri faaliyet göstermektedir. Ülkemin iki deryası Amuderya ve Sirderya suyunu Aral gölüne döküyor. Ayrıca, benim ülkem çeşitli tarım ürünleriyle de tanınmıştır. Bal gibi tatlı meyvelerin tadı dünyanın hiç bir ülkesinde bulunmamaktadır. Bununla birlikte Cizzak, Taşkent, Fergana, Surhanderya ve Kaşkaderya bölgelerinde İsviçre'yi andıran güzel dağ ve ormanları var.


Konuşmada çok kullanılan deyimler – So‘zlashuvda ko‘p qo‘llaniladigan so‘z va iboralar

1. Bugün günlerden ne? - Bugun (haftaning) qaysi kun(i)?
2. Ayın kaçıdır? - Oyning nechanchi kuni?
3. Bu arada... - Bu orada, bu vaqtda...
4. Kaç yılındayız? - Qaysi yildamiz?
5. Günlerden bir gün (Günlerin birinde) - Kunlardan bir kun...
6. Bir daha... - Yana bir marta...
